



THE ROLE OF THE GARMENT INDUSTRY IN ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT AND INCREASING THEIR ECONOMIC INDEPENDENCE

Feruza Anarboyeva¹

Polytechnic No. 1 of Pop district, Namangan region

DOI: 10.5281/zenodo.17368802

Article History	Abstract
Received: 10.08.2025 Accepted: 16.10.2025	This article analyzes the role of the garment industry in ensuring women's employment and their socio-economic empowerment. First, the mechanisms of the leading countries in the world in the garment sector to support women are studied. Second, the current indicators of the garment industry in Uzbekistan, in particular in Namangan, state policy, women's entrepreneurship and regional initiatives are reviewed. At the end of the article, proposals are made for increasing income, expanding skills and employment, enriching social capital, and increasing exports through garment clusters.

Keywords: women's economic empowerment, garment, cooperative, microfinance, vocational education, digital trade, gender equality.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Production foreman of the Polytechnic No. 1 of Pop district, Namangan region, Uzbekistan

TIKUVCHILIK SANOATINING AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH VA ULARNING IQTISODIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

ayollarni iqtisodiy kuchaytirish, tikuvchilik, kooperativ, mikromoliya, kasbiy ta'lim, raqamli savdo, gender tenglik

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada tikuvchilik sohasining ayollarni bandligini ta'minlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kuchaytirishdagi rolini tahlil qiladi. Birinchi, Dunyodagi tikuvchilik sohasidagi yetakchi davlatlarning ayollarni qo'llab-quvvatlashdagi mexanizmlari o'rganib chiqiladi. Ikkinchi, O'zbekistonda, xususan Namanganda, tikuvchilik sanoatining hozirgi ko'rsatkichlari, davlat siyosati, ayollarning tadbirkorligi va hududiy tashabbuslar ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida daromadning oshishi, malaka va bandlikning kengayishi, ijtimoiy kapitalning boyishi hamda tikuvchilik klasterlari orqali eksportning ortishi uchun takliflar keltiriladi.

KIRISH

Tikuvchilik sohasi ayollarni daromad topish, kasbiy malakasini oshirish va ijtimoiy yetakchilik pozitsiyalarini egallashga yo'naltiruvchi eng salohiyatli iqtisodiy yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston tekstil sanoati 2025 yilning dastlabki sakkiz oyida 58,5 trln so'mlik ishlab chiqarish, 1,7 mlrd dollar eksport ko'rsatkichlariga erishib, sanoat ishlab chiqarishining 8,9% ulushini egalladi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini davlat darajasida qo'llash, mahalla markazlari, grantlar va imtiyozli moliyalashtirish choralarini kengaytirish bo'yicha normativ-ijtimoiy baza mustahkamlanmoqda. Namangan viloyati iqtisodiy tuzilmasida yengil sanoatning ulushi oshib borayotgan bir paytda, ayollarni tikuvchilik orqali daromad va ijtimoiy yetakchilikka olib chiqish uchun global tajribalarni joy sharoitiga moslashtirish dolzarb masaladir.

Tikuvchilik sektori global miqyosda ayollar bandligi va daromadining eng yirik manbalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, Bangladeshda kiyim-kechak sanoatida xotin-qizlar ulushi 80% atrofida bo'lib, tarmoq ayollar uchun haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy liftga aylangan. Sohada kasbiy tayyorgarlik, ichki ierarxiyada ayollarni supervayzerlik va yetakchilikka olib chiqish dasturlari, xavfsiz mehnat muhitini kuchaytirish kabi tashabbuslar ilgari surilgan. O'quv markazlarida doimiy malaka oshirish, ichki ko'tarilish yo'llari (operator → supervayzer → liniya rahbari) bilan qo'llab-quvvatlanadi. Natijada, ayollar bandligining o'sishi erta nikohni kamaytirish, oilaviy qarorlarda ovozga ega bo'lish kabi ijtimoiy natijalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hindistonda ayollarni mahalla darajasida tikuvchilikka o'qitish va uyda ish boshlashni rag'batlantiruvchi dasturlar keng tarmoq hosil qilgan. SEWA (Self-Employed Women's Association) kabi modellari orqali mahalliy kooperativlar, ustozlik, kichik kreditlar, bozorga kirish (shu jumladan, onlayn) mexanizmlari barpo etilgan. Bu yondashuvlar noformal sektor ayollarini bank xizmatlari, savdo va ta'lim bilan bog'laydi.

Ayollarga mashina, material, trening va bozorga chiqish yo'llarini taklif etiladi. Shuningdek, kooperativlarni banklashtirish, savdo tarmoqlariga ulash, sifat boshqaruvi va savodxonlikni oshirishda muhim ko'rsatmalar beriladi.

Turkiyada ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, tekstil tarmog'ida korxonalarni raqobatbardosh qilish bo'yicha xalqaro dasturlar amalga oshirilgan. BMT hamkorligidagi dasturlar orqali ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish va tarmoqlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Xalqar va mintaqaviy hamkorlik dasturlari orqali tadbirkorlarni ichki va tashqi bozorlarga ulash ishlari amalga oshiriladi. Ayollar tadbirkorligi bo'yicha kredit, biznes-trening va tarmoqlash amaliyoti mavjud, biroq mehnat bozoridagi gender segmentatsiyasi saqlanib kelayotganini tadqiqotlar ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining yengil sanoat sohasi quyidagi ko'rsatkichlarni taqdim etadi, 2025 yil yanvar-avgustda tekstil ishlab chiqarish 58,5 trln so'm, o'sish 6,3%; eksport 1,7 mlrd dollar, umumiy eksportning 7,3%. 2026 yilga qadar eksportni 3,3 mlrd dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bugungi kunda Respublikaning barcha hududlarida soliqlar, subsidiyalar, foiz xarajatlarini qoplash kabi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari belgilangan, shuningdek, Namanganda ayollar uchun iqtisodiy dasturlar va treninglar mahalla darajasida yo'lga qo'yilmoqda. Viloyat yengil sanoat ulushini oshirayotgan bo'lsada, agrar va xizmat sektorlari ham kuchli. Kasbiy ta'limni kengaytirish, ayollarni shahar/mahalla o'quv markazlari orqali ko'nikmalar bilan ta'minlash dolzarb. Viloyat aholisining 49,2% ayollar bo'lib, tumanlar kesimida ayollar ulushi va urbanizatsiya darajalari farqlanadi, bu kasbiy ta'lim va ish joylari joylashuvini mos rejalashtirishni talab etadi.

Rivojlangan davlatlar yo'lga qo'yilgan yondashuvlar ichida eng samaralilari tizimli kasbiy tayyorgarlik, ustoz-shogird modeli, kooperativ strukturalar, imtiyozli moliyalashtirish, xavfsiz mehnat standartlari, raqamli savdo kanallari va eksport klasterlari bilan ulanadigan bozor infratuzilmasidir. Shuning uchun, Bangladesh modellaridan ilhomlanib, Namangan shahar va tumanlarida malaka modullari: asosiy tikuvchilik, sifat nazorati, liniya boshqaruvi (supervayzerlik) yo'nalishlarini tashkil etish, mahalla bo'yicha qisqa siklli kurslar va sexlarda amaliyot tashkillashtirish zarur. Ish boshlovchilar uchun Mikrokreditlar, grantlar, garovsiz kreditlar, shuningdek moliyaviy savodxonlik, raqamli ko'nikmalar, biznes reja va hisob-kitob bo'yicha mentorliklarni tashkil etish talab qilinadi. Natijada, ayollar daromadi va tadbirkorlik ko'lamining o'sishi, ayollar yetakchiligi, uy mehnati yukining tenglashuvi, farzandlar ta'limi uchun resurslar kengayishi yuzaga keladi.

XULOSA

Yetakchi tikuvchilik hududlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayollarni kuchaytirish muvaffaqiyati sanoat va ijtimoiy mexanizmlar uyg'unligiga tayanadi: kasbiy ta'lim, kooperativlar, moliya, bozorga kirish, gender standartlari va ijtimoiy infratuzilma birgalikda ishlaganda kuchli ta'sir beradi. O'zbekistonning kuchli tekstil bazasi, Namanganning demografik va hududiy afzalliklari, mavjud klaster va eksport yo'nalishlari bilan mazkur kompleks model yirik iqtisodiy va ijtimoiy dividendlar ishlab chiqarishi

mumkin. Namangan ayollarni tikuvchilik orqali barqaror iqtisodiy mustaqillikka olib chiqish bo'yicha mintaqada namuna bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://caspiantpost.com/uzbekistan/uzbekistan-s-textile-industry-weaves-strong-gains-in-2025>
2. <https://ridp.uz/en/news-details/382>
3. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-04/report_women_entrepreneurship_in_uzbekistan_eng_uz.pdf
4. https://www.linkedin.com/posts/lightcanews_uzbekistan-textileindustry-investinuzbekistan-activity-7362498393119584257-VqDj
5. <https://textileinsights.in/uzbekistan-targets-us-3-3-bn-textile-exports-by-2026/>
6. <https://businessfightspoverity.org/skills-and-prosperity-in-the-bangladesh-garment-industry/>
7. <https://hmgroup.com/our-stories/empowering-women-in-the-bangladesh-garment-industry/>
8. <https://www.weforum.org/stories/2023/06/gender-gap-india-how-womens-cooperatives-can-help-accelerate-empowerment/>
9. <https://moderndiplomacy.eu/2025/05/23/breaking-barriers-how-turkeys-gendered-labor-market-shapes-womens-future-jobs/>
10. <https://www.textilegence.com/en/there-is-women-there-is-growth-in-business-life/>
11. <https://www.undp.org/turkiye/news/unpd-turkey-aims-contribute-job-creation-textile-industry-through-vocational-training-izmir>
12. <https://zamin.uz/en/society/160795-womens-rights-and-opportunities-are-expanding-in-namangan.html>
13. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/07/18/women-children-benefit-when-uzbek-villages-are-empowered-to-invest>
14. <https://textileexpo.uz/en/news/textile-exports-from-uzbekistan-exceeded-629-million-in-the-first-quarter-of-2025>